QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI







# QASHQADARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2024- yil**
**yanvar- avgust**

**2024- yilning yanvar-avgust oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami 6570,5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 109,9 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



# 2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, *birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Hududlar kesimida




**1217** Bino va inshootlar qurish

**417** Fuqarolik obyektlarini qurish

**469** Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 57,9 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023- yilga nisbatan 73,8 % ni tashkil etgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 19,8 % ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023- yilga nisbatan 92,3 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 22,3 % ulushni tashkil etib, 85,3 % tashkil etgan.

# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

| | Holatiga : | | o‘tgan yiliga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.09.2023- y. | 01.09.2024- y. | |
| **Qashqadaryo viloyati** | **2651** | **2103** | **79,3** |
| *shaharlar:* | | | |
| Qarshi sh. | 732 | 612 | 83,6 |
| Shahrisabz sh. | 124 | 104 | 83,9 |
| *tumanlar:* | | | |
| G‘uzor | 86 | 66 | 76,7 |
| Dehqonobod | 83 | 62 | 74,7 |
| Qamashi | 107 | 90 | 84,1 |
| Qarshi | 304 | 222 | 73,0 |
| Koson | 277 | 196 | 70,8 |
| Kitob | 112 | 83 | 74,1 |
| Mirishkor | 82 | 56 | 68,3 |
| Muborak | 120 | 92 | 76,7 |
| Nishon | 81 | 66 | 81,5 |
| Kasbi | 116 | 88 | 75,9 |
| Ko‘kdala | 33 | 41 | 124,2 |
| Chiroqchi | 125 | 112 | 89,6 |
| Shahrisabz | 103 | 87 | 84,5 |
| Yakkabog‘ | 166 | 126 | 75,9 |



# 2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, *% da*

**Qarshi sh. (29,1)**



**Qarshi (10,6)**




**Koson (9,3)**





# Qurilish ishlari
# 2024- yil yanvar-avgust oylari uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Qashqadaryo viloyati | 6570,5 | 2161,3 | 3250,4 | 1158,8 |
| *shaharlar:* | | | | |
| Qarshi sh. | 2285,0 | 630,7 | 1512,2 | 142,1 |
| Shahrisabz sh. | 239,5 | 57,2 | 118,8 | 63,5 |
| *tumanlar:* | | | | |
| G‘uzor | 712,5 | 361,4 | 248,8 | 102,3 |
| Dehqonobod | 101,7 | 2,8 | 30,1 | 68,8 |
| Qamashi | 141,1 | 4,1 | 50,9 | 86,1 |
| Qarshi | 554,2 | 154,4 | 348,2 | 51,6 |
| Koson | 406,9 | 96,7 | 199,7 | 110,5 |
| Kitob | 219,5 | 22,1 | 69,6 | 127,8 |
| Mirishkor | 62,6 | 7,5 | 27,0 | 28,1 |
| Muborak | 624,8 | 475,8 | 122,1 | 26,9 |
| Nishon | 286,1 | 195,4 | 59,5 | 31,2 |
| Kasbi | 115,0 | 8,8 | 53,3 | 52,9 |
| Ko‘kdala | 41,4 | 0,0 | 30,8 | 10,6 |
| Chiroqchi | 361,0 | 117,2 | 123,4 | 120,4 |
| Shahrisabz | 202,9 | 16,7 | 134,0 | 52,2 |
| Yakkabog‘ | 216,3 | 10,5 | 122,0 | 83,8 |

** Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda*



**2024- yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2161,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilga nisbatan 156,0 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2023- yildagi ko‘rsatkich darajasidan 9,7 % punktga ko‘payib, 32,9 % ni tashkil etdi.**

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**MA’LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Nishon tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 68,3 % i yoki 2023- yilga nisbatan 15,6 martaga ko‘paydi), Muborak tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 76,2 % i yoki 2023- yilga nisbatan 174,9 % ga ko‘paydi ) va G‘uzor tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 50,7 % i yoki 2023- yiliga nisbatan 206,3 % ga ko‘paydi ) ga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**2024- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 49,5 % i to‘g‘ri kelib, 2023- yil ko‘rsatkichiga nisbatan 7,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilga nisbatan 95,8 % ni tashkil etgan holda 3250,4 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.**




## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da

**49,5**

2024- yil yanvar-avgust

**56,9**

2023- yil yanvar-avgust



**MA’LUMOT UCHUN:** *joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Ko‘kdala tumani (30,9 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 74,5 %), Shahrisabz tumani ( 134,0 mlrd. so‘m yoki 66,0 %), Qarshi shahrida (1512,5 mlrd. so‘m yoki 66,2 %) ga to‘g‘ri keldi.*

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 17,6 % ni tashkil etdi yoki 1158,8 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2023-yilga nisbatan 96,3 % ni tashkil etdi.




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **327,6** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **6242,9** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,0 %** va **95,0 %** ni tashkil etdi.



# Mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari 2024- yil yanvar-avgust oylarida

| | Qurilish ishlari, mlrd so‘m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi, % da | mlrd.so‘m | ulushi,% da |
| Qashqadaryo viloyati | 6570,5 | 327,6 | 5,0 | 6242,9 | 95,0 |
| *shaharlar:* | | | | | |
| Qarshi sh. | 2285,1 | 263,4 | 11,5 | 2021,7 | 88,5 |
| Shahrisabz sh. | 239,5 | - | - | 239,5 | 100,0 |
| *tumanlar:* | | | | | |
| G‘uzor | 712,5 | 2,2 | 0,3 | 710,3 | 99,7 |
| Dehqonobod | 101,7 | 2,8 | 2,8 | 98,9 | 97,2 |
| Qamashi | 141,1 | 4,1 | 2,9 | 137,0 | 97,1 |
| Qarshi | 554,2 | 4,2 | 0,8 | 550,0 | 99,2 |
| Koson | 406,9 | 3,5 | 0,9 | 403,4 | 99,1 |
| Kitob | 219,5 | 13,8 | 6,3 | 205,7 | 93,7 |
| Mirishkor | 62,6 | 3,1 | 5,0 | 59,5 | 95,0 |
| Muborak | 624,8 | 2,4 | 0,4 | 622,4 | 99,6 |
| Nishon | 286,1 | 2,9 | 1,0 | 283,2 | 99,0 |
| Kasbi | 115,0 | 3,8 | 3,3 | 111,2 | 96,7 |
| Ko‘kdala | 41,4 | 1,4 | 3,4 | 40,0 | 96,6 |
| Chiroqchi | 361,0 | 3,1 | 0,9 | 357,9 | 99,1 |
| Shahrisabz | 202,9 | 14,5 | 7,1 | 188,4 | 92,9 |
| Yakkabog‘ | 216,3 | 2,4 | 1,1 | 213,9 | 98,9 |

# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2024- yil yanvar-avgust oyida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **73,1** % i yoki **4806,0** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**42,5 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **2042,5** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **42,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1779,4** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **37,0 %** ni tashkil etdi.

**37,0 %**

**20,5 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **984,1** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **20,5 %** ni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-avgust oylarida

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da | Umumiy hajmga nisbatan,% da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 6570,5 | 109,9 | 100,0 |
| *shaharlar:* | | | |
| Qarshi sh. | 2285,1 | 105,7 | 29,2 |
| Shahrisabz sh. | 239,5 | 73,9 | 2,6 |
| *tumanlar:* | | | |
| G‘uzor | 712,5 | 125,1 | 16,7 |
| Dehqonobod | 101,7 | 100,6 | 0,1 |
| Qamashi | 141,1 | 119,3 | 0,2 |
| Qarshi | 554,2 | 122,2 | 7,1 |
| Koson | 406,9 | 122,6 | 4,5 |
| Kitob | 219,5 | 112,2 | 1,0 |
| Mirishkor | 62,6 | 102,2 | 0,3 |
| Muborak | 624,8 | 137,5 | 22,0 |
| Nishon | 286,1 | 248,4 | 9,0 |
| Kasbi | 115,0 | 70,1 | 0,4 |
| Ko‘kdala | 41,4 | 101,6 | 0,0 |
| Chiroqchi | 361,0 | 74,8 | 5,4 |
| Shahrisabz | 202,9 | 106,3 | 0,8 |
| Yakkabog‘ | 216,3 | 100,4 | 0,5 |

**Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda*



***Ma’lumot uchun:*** *Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.*

# Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

| | 2023- yil yanvar-avgust | 2024- yil yanvar-avgust |
|---|---|---|
| Bino va inshootlarni qurish | 68,6 % | 73,9 % |
| Fuqarolik obyektlarini qurish | 18,8 % | 11,7 % |
| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | 12,6 % | 14,4 % |
| Jami | 100,0 % | 100,0 % |

*Ma’lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

*ulushi % da*

2023- yil yanvar-avgust

6,7

62,9

30,4



5,1

69,2

25,7

2024- yil yanvar-avgust

Yirik qurilish tashkilotlari

Kichik korxona va mikrofirmalar

Norasmiy sektor

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 5,1 % ni tashkil etib, 2023- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2023- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 6,3 % punktga ko‘payib, 69,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 4,7 % punktga kamayib, 25,7 % ni tashkil etdi.

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

**Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 34,7 % ni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan 13,2 % punktga ko‘paydi.**

**Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 65,3 % (13,2 % punktga kamaydi).**

***ulushi % da***




**2023- yil yanvar-avgust** | **2024- yil yanvar-avgust**

# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilga nisbatan 11,6 % punktga kamaydi va 60,2 % ni tashkil etdi. Qolgan 39,8 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2023- yilga nisbatan 11,6 % punktga ko‘paydi.





*Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi*
*Aloqa telefoni: (75) 221 32 47*